

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN QISHLOQ  
XO‘JALIK ENTOMOLOGIIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVII  
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN QISHLOQ XO‘JALIK ENTOMOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida qishloq xo‘jalik entomologiyasi yo‘nalishi talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me‘yoriy asoslar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **O‘simliklarni himoya qilish**

1. O‘simliklarni biologik himoya qilish
2. O‘simliklarni kimyoviy himoya qilish
3. Qishloq xo‘jalik entomologiya
4. Himoyalangan joy zararkunanda va kasalliklari
5. Umumiy va qishloq xo‘jalik fitopatologiyasi

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testl ar soni
1	O'simliklarni biologik himoya qilish	O'simliklarni biologik himoya qilish bu zararli organizmlarga qarshi tirik organizmlarni qo'llash orqali zararli organizmlar miqdorini boshqarish.	10 ta
2	O'simliklarni kimyoviy himoya qilish	Qishloq xo'jalik ekinlari zararli organizmlar miqdorini boshqarishda kimyoviy vositalarni foydalanish.	10 ta
3	Qishloq xo'jalik entomologiya	Qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalarining bioekologiyasi hamda ularga qarshi kurash usullarini o'rgatadi.	8 ta
4	Himoyalangan joy zararkunanda va kasalliklari	Issiqhona ekinlariga zarar keltiruvchi zararli organizmlar bioekologiyasi hamda ularga qarshi kurash usullarini o'rgatadi.	6 ta
5	Umumiy va qishloq xo'jalik fitopatologiyasi	Qishloq xo'jalik ekinlariga zarar keltiruvchi fitopatogen zararli organizmlarining bioekologiyasi hamda ularga qarshi kurash choralarini o'rgatadi.	6 ta

#### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

## VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

## VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt me'yori

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Xo'jaev Sh.T."Umumiy va qishloq xo'jaligi entomologiyasi hamda uyg'unlashgan himoya qilish tizimining asoslari-2019
2. Xamraev A.Sh., Nasriddinov K." O'simliklarni biologik himoya qilish-2003
3. Sulaymonov B.A." O'simliklarni biologik himoya qilish vositalari-2018
4. Sulaymonov B.A., Kimsanbaev X.X., Anorbaev A.R.." O'simliklarni kimyoviy himoya qilish-2021
5. Sh.T.Xo'jaev. "Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya
6. Xolmurodov E.A., Zuparov M.A., Sattarova R.K., Xakimova N.T., Nuraliyev X.X." qishloq xo'jalik fitopatologiyasi -2014
7. Xo'jayev Sh.T., Xolmuradov E.A. "Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotokcnkologiya asoslari-2009

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*